| Fan platformasi | | |
|---|---|---|
| Fanning to'liq nomi: **PEDAGOGIK KVALIMETRIY A** | | |
| Fan kodi: **PEDK2302** | Fanga ajratilgan kreditlar (ECTS):**2** | davomiyligi: 1 semestr |
| Kafedra: O'zbek tili va professional ta'lim | | |
| Fan qaysi yo'nalish talabalari uchun: 60112400 - Professional ta'lim (Oziq-ovqat texnologiyasi) | | |
| Fan ma'ruza o'qituvchisi: kat.o'q. **Ikramova Kamola Asqarovna** | | |
| Fanga ajratilgan umumiy soatlar: 60 | Email: mrihsibaevna86@gmail.com<br>Email: | |
| Fan seminar mashg'ulotlari o'qituvchilsi: kat.o'q. Tadjibayeva Maxmuda Rixsibayevna | | |
| Prerekvizitlar: Pedagogik bilimlar, xususan, kasbiy pedagogika va Boshqaruv psixologiyasi, Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlikdan xabardor bo'lishi darkor.<br>**Tanlov turi**: tanlov fan | | |
| ***Fanning qisqacha bayoni:*** "Pedagogik kvalimetriya" fani majburiy fanlar blokiga kiritilgan kurs hisoblanib, 3 kursda o'qitilishi maqsadga muvofiq. Fanni puxta o'zlashtirish ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan muallimlarning kasbiy malakasi, mazkur bosqichda tashkil etiladigan ta'lim tarbiya jarayonining sifati, tahsil oluvchilarning o'zlashtirgan bilimi, ko'nikma va malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi. | | |

**Fanning maqsadi:** Jamiyat hayotidagi ma'naviy-ma'rifiy yangilanishlarni e'tiborga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonining zamon talablariga mos tashkil etilishini nazorat qilish imkonini beradigan me'yoriy talablarni ishlab chiqishga doir bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

**Fan yakunida talabalar quyidagi malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishadi:**

- dunyoda sodir bo'layotgan g'oyaviy-siyosiy o'zgarishlar, jahonning rivojlangan mamlakatlari ta'lim muassasalarida qo'lga kiritilgan yutuqlar, jamiyat hayotidagi ma'naviy-ma'rifiy yangilanishlarni e'tiborga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonining zamon talablariga mos tashkil etilishini nazorat qilish imkonini beradigan me'yoriy talablarni ishlab chiqish;
- ta'lim-tarbiya jarayonining huquqiy-me'yoriy hujjatlarini yaratish bosqichida davlat va ijtimoiy buyurtmalarga asoslangan DTS, pedagog kadrlarga qo'yiladigan malakaviy talablar asosida namunaviy o'quv rejalari, uzluksiz ta'lim tizimida joriy etilgan modernizatsiyalashtirilgan va uzviylashtirilgan namunaviy dasturlar, o'quv kurslarining moddiy-texnik, o'quv-metodik ta'minotining maqsadga muvofiqligini nazorat qilish va sifatini baholash yo'llarini ishlab chiqish;
- oliy ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayoni, o'quv va pedagogik amaliyotning sifatini nazorat qilish va baholash me'yorlarini shakllantirish; Fanning vazifasi - Ta'lim to'g'risida"gi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, davlat dasturlari, Prezident farmoni, qaror va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlarida belgilangan vazifalar ijrosini nazorat qilish; oliy ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish, akkreditatsiyalash jarayonining me'yoriy hujjatlari va reyting tizimini ishlab chiqish; oliy ta'lim muassasalari

tarkibidagi kafedralarning ilmiy salohiyati, ilmiy-tadqiqot, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini aniqlashdan iboratdir.

**Ma’ruza mashg’ulotlari**

Ma’ruza mashg’ulotlari katta sig’imli, multimedia qurilmalari bilan jihozlangan o’quv auditoriyalarida olib boriladi.

**Amaliy mashg’ulotlar**

Amaliy mashg‘ulot multimedia qurilmalar bilan jihozlangan auditoriyada o‘tkazilishi lozim. Mashg‘ulotlar trening shaklda, faol va interfaol usullar yordamida o‘tilishi mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalari qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.

**Mustaqil ta’lim**

Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan referatlar, materiallar, videoroliklar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

| № | Fan mavzulari | Ma’ruza soatlar hajmi | Amaliy mashg’ulot soatlar hajmi | Mustaqil ta’lim soatlari |
|---|---|---|---|---|
| | Pedagogik kvalimetriya | | | |
| 1. | **Pedagogik kvalimetriya fanining maqsadi va vazifalari** | | | |
| 1.1. | Kvalimetriya fanining maqsadi va vazifalarini o'rganish | | | |
| 2. | **Pedagogik kvalimetriya fanining nazariy – metodologik asoslari** | | | |
| 2.1. | Kvalimetriya fanining nazariy - metodologik asoslarini o'rganish. | | | |
| 3. | **Pedagogik kvalimetriya fanining ilmiy-tadqiqot metodlari** | | | |
| 3.1. | Kvalimetriya fanining ilmiy-tadqiqot metodlarini o'rganish. | | | |
| 4. | **Ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik kvalimetriya metodlaridan foydalanish istiqbollari** | | | |
| 4.1. | Kvalimetriya metodlari vositasida test topshiriqlarini tuza olish. | | | |
| 5. | **Ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik kvalimetriya metodlaridan foydalanish muammolari** | | | |
| 5.1. | Talabalarning o'z-o'zini nazorat qilishjarayonida "My test" dasturi vositasi fanlar bo'yicha nostandart adaptiv test topshiriqlarini tuzish va amaliyotgajoriy etish. | | | |
| 6. | **Baholash va undagi bazi xatoliklar** | | | |
| 6.1. | Baholash mezonlari, shakllari va turlari. Baholashjarayonida uchraydigan ba'zi xatoliklarni o'rganish. | | | |
| | **Jami** | **12** | **12** | **36** |

**Adabiyotlar**

1. Tolipova J.O. Pedagogik kvalimetriya. O'quv qo'llanma. Nizomiy nomidagi T DPU, 2016 y. - 116 b.
2. Nuriddinov B., Haydarov B. va boshq. Baholash metodlari. -T.: UZB- 1737 OTB loyihasi, 2003. -156 b.
3. Golish L.V. Faol o'qitish usullari: mazmun, tanlash va amalga oshirish. Yeks press qo'llanma. -T.: TASIS, 2001. 400 b
4. Farberman B.L., Musina R.G., Jumaboyeva F.A. Oliy o'quv yurtlarida o'qitis hning zamonaviy usullari. -T.: 2002. - 192 b.
5. Avanesov V.S. Sovremennie metodi obucheniya i testovogo kontrolya znaniy.- Vladivostok, 1999. -125 s.
6. Konyuxova N.I. Akmeologiya i testologiya. Monografiya. g.Moskva-1994.

**Qo‘shimcha adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birg a quramiz. Toshkent.: "O'zbekiston", 2017.-488 b.
2. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategi yasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to'plami, 2017 yil, 6-son,70-modda.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr "O'zbekiston Resp ublikasi Oliy Ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlas h to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni.
4. Bolotov V.A., Serikov V.V. Kompetentnostnaya model: Ot idei k obrazavatel noy programmoy. Pedagogika. 2003. N2 3.
5. Bondorevskaya Ye.V., Kulnevich S.V. Pedagogika. 2004. N2 10.
6. Drujilov S.A.Professionalnaya kompetentnosti i professionalizm pedagoga. P sixologicheskiy podxod. Sibir. Filosofiya. Obrazovaniye. Almanax. S.O.RAO. IP K, g., Novokuznevsk-2005. N2 8.
7. Bermus A.G. Problemi i perspektivi realizatsii kompetentnostnogo podxoda v obrazovanii. www.yeidoc.ru. 2005, 09, 10.
8. Kuzmenix J.O. Proffesionalno pedagogicheskaya podgotovka budushix uchit eley v shkolax proffesionalnaya razvitiya_vSSHA. Yoshkar-ala. 2007.
9. Vdovina S.A. Professionalno pedagogicheskaya kompetentnosti yee struktura. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Perm -2009.
10. Yelegina V.S., Poxlebayev S.M. Kompetentnosniy podxod k organizatsii o bucheniya studentov v pedagogicheskim vuze. Fundamentalnoye issledovaniye. 2012.
11. Lebedev. Kompetentnosniy podxod v obrazovani.www.nekrasovepb.ru
12. Zimnyaya I.A., I.A. Klyuchevnix. Kompetensii novaya paradigma rezultat a obrazovaniya. quality.petrsu.ru
13. Olsson, Thomas; Marte11sson Katarina and Roxa, Torgny. Pedagogical com petence. Swedish, Division for Development ofTeaching and Leaming

**Internet saytlari**

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.Ziyonet.uz
4. www.edu.Uz

5. tdou-INTRANE.Ped

**Kontakt soatlari*:** mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish, ularni taqdim etish, zarur ma'lumotlar va turli materiallar bo'yicha savollarga quyidagi grafik asosida o'qituvchiga murijaat qilishingiz mumkin:

| № | Kun | Vaqt | Xona |
|---|---|---|---|
| 1. | Seshanba | 10:00-12.00 | S.D/60 102 |
| 2. | Juma | 11:00 –13.00 | S.D/60 109 |